

MAMLAKATDAGI SOLIQ SIYOSATINI IQTISODIYOTGA TA'SIRI

*Rafiqov Abror Baxtiyor o'g'li**University of Business and Science iqtisod yo'nalishi**3-kurs IQK-22-01 gurux talabasi*

Annotatsiya: Mazkur maqola mamlakatdagi soliq siyosatini iqtisodiyotga ta'siri haqida muhim ma'lumotlarni jamlaydi. Shuningdek, maqolada soliq turlari va ularning xususiyatlari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: Byudjet-soliq siyosati, Davlat budjeti, moddiy resurslar, investitsiya, Chegirma ko'rinishida soliq kreditlari, ijtimoiy infratuzilma, chet el investitsiyasi.

Аннотация: В данной статье обобщена важная информация о влиянии налоговой политики страны на экономику. Также в статье рассмотрены виды налогов и их характеристики.

Ключевые слова: бюджетно-налоговая политика, государственный бюджет, материальные ресурсы, инвестиции, налоговые льготы в форме льгот, социальная инфраструктура, иностранные инвестиции

Abstract: This article summarizes important information about the impact of the country's tax policy on the economy. Also, the types of taxes and their characteristics are considered in the article.

Keywords: budget-tax policy, State budget, material resources, investment, tax credits in the form of discount, social infrastructure, foreign investment

Kirish**MAMLAKATDAGI SOLIQ SIYOSATINI IQTISODIYOTGA TA'SIRI**

Har bir mamlakatda ishlab chiqilib, hayotga tatbiq etilishi lozim bo'lgan byudjet-soliq siyosatining mazmun-mohiyati va uning yo'nalishlarini eng avvalo, shu mamlakatda bozor munosabatlarini shakllantirishda uning qanday modeliga tayanilgani (asoslanganligi) belgilab beradi. Shu ma'noda bozor iqtisodiyotini shakllantirish modellari va byudjet-soliq siyosati o'zaro vobastadir. Ularning ikkinchisi (byudjet-soliq siyosati)ni birinchisi (bozor iqtisodiyotini shakllantirish modellari)dan ayro holda tasavvur etib bo'lmaydi. Davlat budjeti — davlat pul mablag'larining (shu jumladan, davlat maqsadli jamg'armalari mablag'larining) markazlashtirilgan jam g'armasi bo'lib, unda daromadlar manbayi va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek, moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan

mablag'lar sarfi yo'nalishlari va miqdori nazarda tutiladi. Agar aksincha ish tutilsa, bu bir tomondan, mamlakatda sog'lom bozor munosabatlarining rivojlanishiga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatadi, uni murakkablashtiradi. Ikkinchi tomondan esa, byudjet-soliq siyosatida bozor iqtisodiyotini shakllantirishning u yoki bu modelining o'ziga xos xususiyatlari, talablari va prinsiplari inobatga olinmasa, bu bunday siyosatning muvaffaqiyatsizlikka uchrashiga o'ziga xos zamin tayyorlaydi va byudjet-soliq siyosati albatta, ertami-kechmi, baribir muvaffaqiyatsizlikka uchraydi. Shuning uchun ham bu yerda bozor iqtisodiyotini shakllantirish modellari va byudjet-soliq siyosatining o'zaro vobastaligini to'g'ri idrok etish prinsipial ahamiyatga ega. Bu masalada "Davlat soliq xizmati organlari tomonidan soliq to'lovchilarning soliq majburiyatlarini aniqlashda davlat organlari va tashkilotlarining ma'lumotlar bazasidan foydalanishni tartibga solish" to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 22.08.2022 yildagi 471-son Mazkur tushunchaning ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlari mazmuni turlituman shakllar vositasida ifodalanadi[1].

Turli ko'rinishdagi va shakldagi soliq imtiyozlari iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning muhim shakli hisoblanadi. Imtiyozlardan iqtisodiy jarayonlarni tartibga solish maqsadida foydalaniladi. Ular investitsiyalarni, tadbirkorlik faoliyatini, chet el kapitalini jalb etishni, pul va moddiy resurslarni tejashni, ishlilab chiqarish samaradorligini oshirishni va handlikni oshirishni rag'batlantirish maqsadida qo'llaniladi. Iqtisodiyotni va ijtimoiy jarayonlarni tartibga solish maqsadida qo'llanilgan soliq imtiyozlari turli shakllarda namoyon bo'ladi. Eng keng tarqalganlari quyidagilar:

1) Chegirma ko'rinishida soliq kreditlari berish, ya'ni foydani kamaytirilgan sohqlar hisobiga oshirish. Masalan, AQShda 1962-vildan buyon 20 yil mobaynida turli investitsion (soliq) kreditlar qo'llanib kelinmoqda, ya'ni foydalanish muddati 8 yildan ortiq bo'lgan, ishlab chiqarishga kiritilgan uskunalar qiymatining 7 % ga teng miqdorda foyda solig'i qisqartiriladi. Yaponiyada ham xuddi shunday yangi texnika va texnologiyalarga qilingan investitsiyaning 7 % miqdorida soliq krediti qo'llaniladi. Kanadada mos tarzda sohq chegirmalari 7 %dan 20 % gacha o'zgarib turadi. Bir qator mamlakatlarda 138 tadbirkorning ITTLI ga qilgan xarajatlari o'rtacha yillik foydani belgilangan ulushidan ortiq bo'lsa, qisqartirilgan soliq shaklidagi soliq krediti qo'llaniladi. Masalan, AQShda bazis davriga nisbatan o'rtacha yillik me'yoridan ITTLI ga qo'shimcha qilingan xarajatlarning 20 %ga teng miqdorda foyda solig'i kamaytiriladi. Fransiyada ITTLI ga qo'shimcha qilingan xarajatlarning 50 % ga teng miqdorda foyda solig'i qisqartiriladi, Kanadada esa qo'shimcha qilingan xarajatlarning 100 % ga teng miqdorda foyda solig'i kamaytiradi. Soliq krediti shaklidagi imtiyozlar ta'lim olish (asosan oliy ma'lumot) uchun yakka tartibdagi haq to'lovchilarga ham qo'llaniladi. AQSh dan keyingi ta'lim uchun to'lov miqdorining dastlabki 5 ming dollariga 20 % chegirma miqdorida «Ta'lim soliq krediti» hamda 13-17 yoshdagi har bir o'quvchiga yiliga 500 dollar miqdorda soliq imtiyozi joriy etilgan.

2) Imtiyozning ikkinchi shakli — soliqlardan butunlay ozod etish yoki pasaytirilgan soliq stavkalarini o'rnatishdir. Bunday imtiyozlar kichik tadbirkorlikni rag'batlantirish maqsadida qo'llaniladi. Bunga qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qo'shilgan qiymat solig'idan ozod etilishini ham kiritish mumkin. Bunday imtiyozlar respublikamizda ham keng qo'llaniladi.

3) Soliq imtiyozlarining uchinchi shakli — tezlashtirilgan amortizatsiya usulini qo'llanilishi, ya'ni olinadigan foydaning hajmini tezlashtirilgan amortizatsiya miqdoriga qisqartirish usulidir.

Hukumat tomonidan belgilangan oshirilgan amortizatsiya xarajatlarini ishlab chiqarish xarajatlariga qo'shishga ruxsat beradi. Buning natijasida ishlab chiqarish xarajatlari oshadi, biroq soliq miqdorini qisqarishi hisobiga olinadigan foyda miqdori o'zgarmaydi. Mutanosiblikni tartibga solish uchun boshqa imtiyozlar ham qo'llaniladi. Misol uchun, AQShda foydaning ijtimoiy infratuzilma obyektlari qurilishiga yo'naltirilgan qismi soliqlardan ozod etiladi. Ba'zi mamlakatlarda mehnatga haq to'lash va ishlab chiqarishni texnik qayta qurollantirishga sarflanadigan mablag' lami soliqqa tortishning alohida ti'im lari qo'llaniladi. Misol uchun, Fransiyada texnik qayta qurollanishga sarflanadigan mablag'larga solinadigan soliqlar juda ham past[2]. Germaniya va Fransiyada qo'shim cha ish o'rinlarini yaratish uchun qilingan xarajatlarga maxsus soliq imtiyozlari kiritilgan. Respublikamizda ham iqtisodiy rivojlanishni tartibga solish maqsadida soliq imtiyozlari tizimidan keng qo'llaniladi. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga muvoliq chet el investitsiyasi bilan tashkil etilgan, import o'm ini bosuvchi va eksportga yo'naltirilgan mahsulot ishiab chiqaradigan ishiab chiqarish korxonasi daromadi (foydas) ishiab chiqarishni boshlagandan 5 yil muddatgacha soliqlardan ozod etiladi. Agar, ishiab chiqarish hajmining 25 % dan ortig'ini bolalar assortimentidagi tovarlar tashkil etsa va korxona ustav fondida chet el kapitali ulushi 50 % dan ortiq bo'lsa 2 yilgacha soliqlardan ozod etiladi. Qisilov joylarda va aholi punktlari hududida yangi tashkil etilgan xalq iste'moli tovarlarini ishiab chiqarish va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishllovchi korxonalar ishiab chiqarishni boshlagandan to 3 yil m uddatgacha soliqlardan ozod etiladi. Umumiy ishchilar sonining 75 %dan kam bo'lmagan qismi o'rta maktab o'quvchilaridan va kasb-hunar o'quv yurtlari o'quvchilaridan tashkil topgan yuridik shaxslarning daromad(foyda)lari soliqlardan ozod etiladi. Ekologiyaga, sog'lomlashtirish va xayriya fondlariga, madaniyat muassasalariga, xalq ta'limi va sog'liqni saqlashga badallar to'lash hisobiga daromadni(foydani) soliqqa tortishni kamaytirish shaklidagi imtiyozlar ham mavjud.

Soliqlar bevosita davlatning paydo bo'lishi bilan bog'liqdir, ya'ni davlat o'zining vazifalarini bajarish uchun moliyaviy manba sifatida soliqlardan foydalanadi[3]. Jamiyatda iqtisodiy samarasiz bo'lgan sohalar ham mavjudki, bular soliqlarni ob'yektiv amal qilinishini talab etadi. Soliqlarning ob'yektiv zarurligini bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida ikki holat bilan ifodalash mumkin: birinchidan,

davlatning qator vazifalarini mablag' bilan ta'minlash zarurligi; ikkinchidan, bozoriqtisodiyoti qonun-qoidalarini bilan; Davlatning bajaradigan funksiyalari va vazifalari ko'p bo'lib, bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida davlatning yangi vazifalari paydo bo'ladi. Bularga kam ta'minlanganlarga ijtimoiy yordam ko'rsatish, bozor iqtisodiyoti infratuzilmasini (sanoatda, qishloq xo'jaligida, moliya tizimida) tashkil qilish kiradi. Shu bilan birga, davlat jamiyat a'zolari osoyishtaligini saqlash maqsadida o'zining mudofaa qobiliyatini saqlab va mustahkamlab turishga, texnika va o'qidorilarga ham mablag'lar sarflaydi, qolaversa, davlat fuqarolar xavfsizligini saqlash, mamlakatda tartib intizom o'rnatish, uni boshqarish funksiyalarini bajarish uchun ham ko'plab mablag' yo'naltirishga majbur. Bunday xarajatlarni amalga oshirishning majburiyligi ular uchun manba bo'lgan soliqlarni ham ob'yektiv zarur qilib qo'yadi. Hozirga qadar davlatning funksiyalarini bajarish uchun lozim bo'lgan moliyaviy mablag'larni shakllantirishning soliqlardan boshqa usuli jahon amaliyotida qo'llanilgan emas. Demak, hukmron kuch sifatida davlat mavjud ekan, moliyalashtirish usuli sifatida soliqlar ham amal qiladi. Ma'lumki, jamiyat iqtisodiy hayoti juda murakkab iqtisodiy hodisalardan iborat. Ana shu murakkablik bevosita soliqlarga ham tegishli, bu holat soliqlarning iqtisodiy mohiyatini teran anglashni taqozo etadi.

Bu munosabatlar soliq to'lovchilar (huquqiy va jismoniy shaxslar) bilan ularni o'z mulkiga aylantiruvchi davlat o'rtasida bo'ladi. Soliqlar, yig'imlar, bojlar va boshqa to'lovlar hisobiga davlat moliyaviy resurslari tashkil topadi. Davlat faoliyatining barcha yo'nalishlarini mablag' bilan ta'minlashning asosiy manbalaridan biri va davlat ustuvorligini amalga oshirishning iqtisodiy vositasi soliqlardir. Soliq tizimini tartibga solish va mukammallashtirish samarali davlat iqtisodiy siyosatini olib borishga, xususan, moliyaviy tizimni rivojlantirishga yordam beradi.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan soliqlar orqali tartibga solish, davlat byudjetini shakllantirish, soliq solish vositasida jamiyatdagi u yoki bu jarayonlarning rivojlanishiga ta'sir etuvchi usuli hisoblanadi. Soliq tushunchasi – iqtisodiy munosabatlarda asosiy o'rinni egallaydi. Uning xarakterli tomoni shundaki – u tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanadigan yuridik va jismoniy shaxslardan ularga mulkchilik, xo'jalik yuritish yoki tezkor boshqaruv huquqida tegishli bo'lgan pul mablag'larini davlat va munisipal tuzilmalarni moliyaviy ta'minlash maqsadida begonalashtirish shaklida undiriladigan majburiy, yakka tartibdagi qaytarib berilmaydigan to'lovlarni aks ettiradi, ya'ni soliq – davlat tomonidan xo'jalik yurituvchi sub'yektlar va fuqarolardan majburiy qonuniy tartibda belgilangan stavkalar bo'yicha, soliq to'lovchining bundan biron bir muayyan manfaat ko'rishi bilan bevosita bog'lanmagan tarzda undiriladigan pul yig'imi.

Hozirgi vaqtda soliqlar vositasida davlat daromadlarining asosiy qismi shakllantiriladi. Bozor munosabatlarining shakllanishi davrida soliqlar korxonalarning iqtisodiy faoliyatini tartibga solishning bilvosita quroli hisoblanadi. Soliq to'lash

xo'jalik yurituvchi sub'yektlar va fuqarolar bilan davlat o'rtasida yangidan yaratilgan qiymatni taqsimlashning asosiy vositasi hisoblanadi. Biror bir jamiyatni soliq tizimisiz tasavvur qilish mumkin emas[4]. Chunki soliqlar byudjet daromadlari (pul fondi)ni tashkil etishning asosiy vositasi bo'libgina qolmay: mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirishga; ishlab chiqarishni rag'batlantirishda investisiyalarni ko'paytirishga; raqobatbardosh mahsulot hissasini ko'paytirishga; kichik va o'rta biznesni rivojlantirishga; xususiy korxonalar ochish bilan bog'liq bo'lgan bozor infratuzilmasini barpo qilishga; umumdavlat ehtiyojlarini qondirishga va boshqalarga xizmat qiladi.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarni xulosa qilgan xolda shuni aytish joizki, jamiyat iqtisodiy taraqqiyoti bir tomondan uning ichki mexanizmiga bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan boshqaruvning xarakteriga, ijtimoiy-siyosiy holatga, muvozanatga bog'liq bo'ladi. Mazkur jarayonda ijtimoiy siyosat alohida rol o'ynaydi. Ijtimoiy siyosat o'z navbatida ichki va tashqi madaniy marifiy, siyosiy, iqtisodiy siyosat kabilarga bo'linadi. Iqtisodiy siyosat ham o'z navbatida moliya, pul-kredit, byudjet, soliq siyosati kabi turlarda amal qilib, ularni yaxlitligi makroiqtisodiy darajada qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlari faoliyatlarining asosiy ajralmas qismiga aylanadi. Shu o'rinda soliq siyosatining mazmuniga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, yuqorida qayd etilganidek, soliq siyosati iqtisodiy siyosatning ajralmas bir bo'lagi bo'lib, davlatning muayyan davrda aniq maqsadlarga qaratilgan soliq sohasidagi faoliyatidir. U tarkiban soliqlarni joriy etish, soliqqa oid huquqiy baza yaratish, joriy etilgan soliqlar va soliqsiz to'lovlarni amaliyotda ishlash mexanizmini shakllantirish va samaradorligini oshirishga qaratilgan davlatning tegishli vakolatli organlari tomonidan kompleks tarzda olib boriladigan chora-tadbirlar yig'indisidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 22.08.2022 yildagi 471-son
2. Z.Srojiddinova. O'zbekiston Respublikasi budjet tizimi. «infoCOM.UZ». Toshkent-2015y.
3. Qosimova G., Shoakramov K. Mahalliy budjetlar. O'quv qo'llanma.– T.: "Moliya", 2017.
4. Malikov T.S., Haydarov N.X. Budjet daromadlari va xarajatlari. -Tashkent: "IQTISOD-MOLIYA", 2007 y. 22. Malikov T.S., Haydarov N.X. Davlat budjeti.- Toshkent: "IQTISOD-MOLIYA", 2007y.